



## NAVOIYSHUNOS OLIM ABDUQODIR HAYITMETOV PORTRETIGA CHIZGILAR

**Muallif:** Nazarova Dilnavo <sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Buxoro davlat universiteti doktoranti <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20196895>

### ANNOTATSIYA

Maqolada adabiy tanqidning tarixiy-biografik yo‘nalishi va unda adabiy portret janrining o‘rni tahlil qilinadi. Asosiy e‘tibor adabiyotshunos olim Rahim Vohidovning “Navoiy qalbi-la sirlashgan inson” risolasiga qaratilib, unda yirik navoiyshunos Abduqodir Hayitmetovning ilmiy-ijodiy faoliyati, ma‘naviy qiyofasi hamda o‘zbek navoiyshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi yoritilganligi ko‘rsatib beriladi. Maqolada shogird va ustoz munosabatlari, ilmiy merosni qadrlash, olimning tadqiqotchilik mahorati va tanqidchining baholash mezonlari ilmiy tahlil asosida ochib berilgan. Shuningdek, A.Hayitmetov asarlarining o‘zbek adabiyotshunosligi va navoiyshunoslik taraqqiyotidagi ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** adabiy tanqid, adabiy portret, tarixiy-biografik yo‘nalish, navoiyshunoslik, Rahim Vohidov, Abduqodir Hayitmetov, Alisher Navoiy, ilmiy meros, tanqidchi mahorati, o‘zbek adabiyotshunosligi.

Adabiy tanqid janrlari hamda ularda namoyon bo‘luvchi tanqidchi mahorati, aytilayotgan fikrning mazmuni, yozuvchi va o‘quvchiga ta‘siri va ko‘tarilayotgan muammolar, tahlillar, asarning o‘ziga xosligini ochib berish va hokazolar nuqtai nazaridan qimmatlidir. Bu silsilada tarixiy-biografik yo‘nalishda yaratilayotgan asarlarning o‘rni katta. Bular orasida adabiy portret va uning turli shakllari ijodkorning to‘liq ham ijodiy, ham ma‘naviy qiyofasini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi[1,78].

Keyingi yillarda ilm-fan rivojida, ayniqsa, adabiyotshunoslikda katta o‘rin egallagan ilm darg‘alari, yetuk olimlar haqida tarixiy-biografik yondoshuv asosida turli xarakterdagi tanqidiy asarlar yaratilmoqda. Bu borada buxorolik adabiyotshunos olim R.Vohidovning qator asarlarini sanab o‘tish mumkin. Olimning adabiyot ilmi oldidagi xizmatlaridan biri shuki, “u ustozlari, zamondosh olimlarga kamoli ehtirom bilan qaraydi, ularning xizmatlarini munosib qadrlaydi. Olim o‘z ustozlari V.Abdullaev, A.Hayitmetov, B.Valixo‘jaev haqida husni tavajjuh va kamoli ehtirom bilan bir necha ishlar yozdi, ularning adabiyotimiz, madaniyatimiz ravnaqiga qo‘shgan hissasini e‘tirof etdi”[3.]. Haqiqatan ham olim tarixiy- biografik yo‘nalishda bir qancha asarlar yaratdiki, ular orasida Ustoz, navoiyshunos olim, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik tadqiqotchisi Abduqodir Hayitmetovning o‘rni katta.

“Navoiy qalbi-la sirlashgan inson” risolasi ham 1999-yilda “professor Abduqodir Hayitmetov hayoti va ijodidan lavhalar” tagsarlavhasi ostida chop etilgan. O‘zbek adabiyotshunosligi sahnida O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, ikki marta Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, professor Abduqodir Hayitmetov saboqdoshi Aziz Qayumov bilan bir vaqtda – 50-yillarning ikkinchi yarmida ko‘rina



boshladilar. Lekin ularning ilmiy-ijodiy yo'nalishlari boshqa-boshqa edi. A. Qayumov tug'ilgan yurti Qo'qoni latifda XVIII-XIX asrlar davomidagi adabiy muhitni o'rganishdan ilmiy faoliyatini boshlagan bo'lsa, A.Hayitmetov o'z ilmiy izlanishlarini buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganishdan boshladi. Shunisi e'tiborliki, u shu birinchi tadqiqotidan hozirgisigacha — yarim asrdan ziyodroq ongli ilmiy faoliyatini o'zbek milliy navoiyshunosligi ravnaqiga bag'ishlab kelgan iste'dod sohibidir. R.Vohidov uning navoiyshunoslikdagi ilk asarlarini talabalik yillarida o'qib-o'rgangan, shu—shu, hanuzgacha ustozning har bir yangi asari yo maqolasini rag'bat va muhabbat bilan o'qishni kanda qilmay, boz ustiga ustoz bilan umrining yakunigacha ilmiy-ijodiy hamkorlik ham qilib kelgani ibratlidir. Samimiyatga yo'g'rilgan bunday ustoz-u shogirdlik rishtalari R.Vohidov qalbida alohida faxr uyg'otganligi o'zgacha samara berganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Buni ustoz A.Hayitmetovning oltmish yoshga to'lishi munosabati bilan yozilgan "Barkamol navoiyshunos olim" ("Buxoro haqiqati" 1988, 12 dekabr, T.Qorayev va M.Qosimovalar bilan hamkorlikda) to'yxat maqolasida ko'rish mumkin. Aytish mumkinki, shu ilk maqola R.Vohidovning, oradan un bir yil o'tgach, olimning kutlug 70 yilligiga bag'ishlanib yozilgan va 1999 yilda chop etilgan "Navoiy kalbi-la sirlashgan inson" risolasining dunyoga kelishiga xamirturush bo'lgan.

Biz bu asarni janri nuqtai nazaridan kelib chiqib, olim portretiga chizgilar deb nomladikki, u A. Hayitmetovning ilmiy-ijodiy faoliyati haqida muxtasar ma'lumotlarni ifoda etadi. Unda olimning o'zbek milliy navoiyshunosliginng yuksalishida ayriча mavqega ega bo'lgan Alisher Navoiy haqidagi 10dan ziyod asarlarining barchasi tahlil qilinmaydi, lekin ularning har birining markazida turgan muammoning qay darajada o'rganilganligi va bu hodisaning, o'z navbatida, o'zbek navoiyshunosligidagina emas, balki adabiyotshunosligida ham qay darajada ahamiyat kasb etishi g'oyat teran nazar bilan baholangan. Bunday kuzatish taniqli munaqqid O.Sharafiddinovning uchrashuvlardan birida aytgan A. Hayitmetov yozgan ishlarni o'rni-o'rni bilan qo'yib chiqsa, Navoiy qomusi yuzaga keladi, degan gapini to'la tasdiqlaydi. Chindan-da, o'zbek adabiyotshunosligida A. Hayitmetov shunday ilmiy qomus yarata oldi, shu tajribalaridan kelib chiqqan holda Navoiy qomusini yaratish fikriga keldi. Mana, necha yildirki, o'zbek navoiyshunoslari Alisher Navoiyning mukammal ilmiy qomusini yaratish ustida izlanib kelmoqdalar.

Shogird ustozning yuqorida eslatilgan navoiyshunoslikka oid tadqiqotlariga munosabati jarayonida A.Hayitmetovgagina xos noyob bir xususiyat - o'z-o'zini muttasil tahrir va tag'yir etish, o'z qarashlarini muttasil takomillashtirish, yo'l qo'ygan saxf-u xatolarini tuzatib borish iste'dodiga diqqatni qaratadi. Shu munosabat bilan o'zbek navoiyshunosligida voqea bo'lgan, biroq sobiq sho'ro mafkurasi ta'sirida bitilib, 1960- yilda nashr etilgan "Navoiy lirikasi" tadqiqotidagi ayrim eskirgan qarashlarini "Navoiy dahosi", "Hayotbaxsh chashma", Tabarruk izlar izidan...", "Meros va ixlos", "Navoiyxonlik suhbatlari", "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti", "Adabiy merosimiz ufqlari" singari istiqlol yillarida yaratilgan tadqiqotlarida qayta ko'rib, tuzatib, takomillashtirib borganligini dalillar bilan ko'rsatadi. Shuningdek, olimning Alisher Navoiy "Xamsa"sining bosh dostoni — "Hayrat-ul abror"ning shoir 15 va 20 tomliklariga, rus tilidagi 10 tomligiga nashrga tayyorlashi, qolaversa, shu dostonning nasriy bayonini yaratishga oid tajribalariga oid kuzatishlar portretga chizgilarning ilmiy saviyasini yuksaltirishdan tashqari A. Hayitmetovning ulug' shoir merosini tashviq va targ'ib qilishdagi xizmatlarini ham ayon etadi.

R.Vohidov ustozning har bir tadqiqoti haqida gapirar ekan, ularni sinchiklab o'ragngani seziladi, shu bilan birga ularga baho berishga ham harakat qiladi. Masalan, "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti" kitobida "gulshandan qatralar" rukni ostida mitti maqolalar berilgani, olim maqolalarining qamrov kengligini ta'kidla ekan, shunday yozadi;" Alqissa, "kibar ayyomi favoyidlari" o'zidan darak berib, ziyo nurini sahifalar uzra sochayotirki, bu nafaqat Abduqodir domlaning, balki adabiyotshunosligimizning ham baxtidir..." [ 2, 30].

"Navotiy lirikasi" haqida fikr yuritar ekan, mazkur kitobdan oldin yaratilgan tadqiqotlarga, ilmiy ishlarga ham to'xtalib o'tadi, ularni qayd etadi, ammo ulug' shoir she'riyati yaxlit holda tadqiq qilingan bu kitobga ehtiyoj katta bo'lganligini, bu salmoqli asar Alisher Navoiy muhiblariga beminnat xizmat qilib kelayotganini alohida ta'kidaydi, kitobni atroflicha tahlil qiladi. "Adib bo'lsin, olim bo'lsin, uning yozgani o'z o'quvchisini topa olmas ekan, sarflangan umr zoye ketadi. Ikkinchidan, davr ruhini to'g'ri ilg'ay olish, fanning muayyan sohasi uchun dolzarb mavzuni topish va zamon andozalariga mos ish yozish muvaffaqiyat omilidir."Navoiy lirikasi" o'shanday o'z vaqtida yozilgan risolalar sirasiga kiradi. Asar katta ilmiy-ijodiy izlanish samarasi sifatida dunyoga kelgan"[ 2, 56].

Shu tariqa tanqidchi olim asarlarini tahlil qilish, ularga baho berish yo'lidan borar ekan, navoiyshunoslik domlaning ilmiy tadqiqotlari zanjirida tayanch halqa deb hisoblaydi, shu bilan birga o'zbek mukmtoz adabiyoti, qardosh xalqlar badiiy so'z san'ati, adabiyot nazariyasi, bugungi adabiy jarayon haqidagi tadqiqotlarisiz yaxlit holida, mukammal ilmiy qiyofada tasavvur qilish mushkul ekanligini ham ta'kidlaydi.

Adabiy yoki ijodiy portretga obyekt bo'lgan insonning to'liq qiyofasini chizish uchun uning atrfidagilar bilan munosabati, hamkasblari va uni yaxshi bilgan insonlarning fikrlari ham muhim hisoblanadi. Ammo bu yirik navoiyshunos olimning xayoti va ijodidan lavhalar bo'lgani bilan uning shaxsiy hayoti, oila muhitiga to'xtalmaydi.

Olim tahlillar jarayonida Abduqodir domlaning ilmiy-ma'naviy qiyofasidagi fazilatni kashf etadi. Shaxs, Olim, Murabbiy, Jamoatchi – Abduqodir domlaning tabiatida so'z, burch va o'z umrini baxshida qilgani sohaga sadoqat, e'tiqod, mas'ullik tuyg'usi nihoyatda balandligi, o'shalar olimning MENidan har qanday shaxsiy istak va manfaatlaridan ustun turishini shogirdlik hurmati va mehri bilan ifodalaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқиди жанрлари. Тошкент. "Фан". 2009.
2. Воҳидов Р. Навоий қалбила сирлашган инсон. Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти. 1999.
3. Комилов Н. Илм навқари.